



OLIV HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY ILMIY-IJODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

BAKAYEV Xomid Olimovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Zamonaviy talablarga javob beradigan, har sohada kreativ bo'la oladigan mutaxassislar sonini oshirish orqali rivojlanishni takomillashtirishni ko'rsatadi. Harbiy xizmatchilar orasida kreativ fikrlashni shakllantirish borasida muhim fikrlar maqolada ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, kreativ tafakkur, zamonaviylik, ilmiylik, taktik mulohaza, dialektga oid kreativlik.

Harbiy xizmatning o'ziga xosligi shaxsdan doimiy harbiy-texnik takomillashuvni ruhiy va jismoniy chiniqishni, og'ir mehnatning doimiy bosimiga chidashni taqazo etadi. Shu bilan bir qatorda mustaqillik, yaratuvchanlik, qarorlar qabul qilishda bir qolipda turmaslik zarurati, kishilar bilan muntazam ishlash zobitning shaxsiy beqiyosligini namoyon etish va amalga oshirishga imkon beradi. Biroq, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Ayni vaqtda, aytish joizki, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi zamon talablariga to'liq javob bermaydi. harbiy o'quv yurtlarida zamonaviy shart-sharoitlarni xo'jako'rsinga yaratganimiz yo'q. ...Aksincha, kursantlarimiz va tinglovchilarimiz ta'lim sohasida eng ilg'or, innovatsion bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Mana, bizning asosiy maqsadimiz»[1].

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tizimida kreativ tafakkur harbiy xizmatchilarni tayyorlash va o'qitishning yangi ijodiy qonunlarini o'rganish va amalga oshirishda, ofitserlarni tayyorlashda alohida o'rin tutadi. Shu boisdan ham kreativ tafakkur bir qator dialektik xususiyatlarga ega. Kreativ tafakkur - bu harbiy ijodiy izlanishlarning fundamental asoslari va qonunlarini, harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalarni ilmiy salohiyatini yuksaltiruvchi muhim omil hisoblanadi. Kreativ tafakkurning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u harbiy xizmatchilarda haqiqiy ijodiy-jangovar vazifalarni



hal qilishga xizmat qiladi. Kreativ tafakkurni yuksaltirish vazifalarini o‘z vaqtida hal etish, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar kuchini kuchaytirish manfaatlarida inson omilini faollashtirishning yangi usul va vositalarini izlashga imkon beradi.

Qo‘mondonlar orasida zamonaviy ilmiy-ijodiy tafakkurni shakllantirish, funksional va o‘quv vazifalarini sifatli bajarish, harbiy jamoada qonun, huquq-tartibot va harbiy intizomni o‘rnatish uchun o‘ziga xos ijodiy muhit, hamjihatlik, o‘zaro talabchanlik va shaxsiy javobgarlik muhitini yaratishga zamin yaratadi.

Kreativ tafakkur muammolarini hal qilishda ijodkorlik harbiy kasb ta’limi samaradorligini oshirishga imkon beradigan alohida masaladir.

Bu jarayon quyidagi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) ijodiy tayyorgarlik
- 2) ijodiy anglash
- 3) inkubatsiya davri
- 4) ijodiy yuksaklik.

Ushbu ijodiy bosqichning barchasini har qanday kasbiy faoliyat sohasida samarali qo‘llash mumkin, chunki bu bosqich har doim muammoni o‘z vaqtida hal qilishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, yosh harbiy mutaxassis faoliyatining har qanday sohalarida kelgusida mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun ijodiy algoritmnini ishlab chiqish muhim o‘rinni egallaydi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

Trening. Bu ijodiy rejalashtirish bosqichidir. Unda nazariy ma’lumotlar yig‘iladi, muammo aniq shakllantiriladi va tadqiqot natijalari to‘g‘risida ilmiy-ijodiy taxminlar ishlab chiqiladi. Ushbu bosqichda aniq ratsional maqsadlar belgilanadi va natijalar aniqlanadi. Shuningdek, tadqiqot olib borishning to‘g‘ri yo‘nalishi tanlanadi, zarur vositalarning mavjudligi tekshiriladi va tajriba strategiyasi ishlab chiqiladi.

Tushkunlik ijodiy anglash va lazzatlanish bosqichi. Ushbu bosqich harbiy mutaxassisdagi umidsizlikka tushish, o‘z qobiliyatiga nisbatan ishonchsizlikni bartaraf etish ustuvor o‘rinni egallaydi. Agar bu bosqichda ustoz to‘siqni yengib o‘tishning yo‘lini ko‘rsatmasa yoki uning o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni ilhomlantirmasa ko‘zlangan



maqsadga erishib bo'lmaydi. Shu boisdan ham bu jarayonda ijod lazzatini his qilish va anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Inkubatsiya davri. Muammoni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelganingizdan so'ng, uni hal qilishni biroz vaqtga kechiktirishingiz, harbiy xizmatchilarning diqqat e'tiborini boshqa masalalarga o'zgartirishingiz kerak.

Ijodiy yuksaklik bosqichi. Bu ongdan ongga o'tish, miyaning chap va o'ng yarim sharlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Ushbu bosqichda insonning noyob ijodiy sezgi qobiliyati ustuvor o'rinni egallaydi. Bu intuitiv yechimlar nafaqat samarali, balki ijodiy yuksaklikka intilishga ham yordam beradi. Bu bosqichda inson o'z taxminlarini tekshirishi, ularga maqbul shaklni berishi mumkin. O'z maqsadlariga erishishda ishonchi komil bo'lish uchun qat'iy ilmiy, oqilona, hatto pragmatik yondashuv zarurdir.

Bunday ruhiy jarohatlarni hatto tinch hayot sharoitida ham davolash juda murakkab masaladir. Shu munosabat bilan tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi bo'yicha prinsipial jihatdan yangi meyoriy hujjatlar ishlab chiqishi zarur. Bu borada asosiy e'tiborni harbiy-amaliy masalalarni hal etishga yo'naltirish lozim. Harbiy xizmatchilar har tomonlama sog'lom va chidamli bo'lishi, har qanday murakkab jismoniy va ruhiy sinovlarga bardosh berishi kerak" [2].

Xullas, kreativ tafakkur, tasavvur, qiziquvchanlik rivojining past darajasi mazkur harbiy ta'lim tizimi shaxsga uning madaniyatiga nisbatan axborotlashtirish, hissiy-emotsional tomoniga nisbatan ratsional jihati ustuvorligi saqlanib qolinayotganligidan dalolat beradi. YA'ni bu ta'lim tizimi doirasidagi faoliyat asosan kursantlarga bilim uzatishga yo'naltirilganligini, ta'lim jarayonining o'zi esa didaktotsentrik texnologiyaga asoslanganligini va unda o'qituvchi va kursant o'rtasida subyekt-subyektli munosabatlar hukmronligini ko'rsatadi. Shu nuqtai-nazardan, o'qituvchi darsga qanchalik mukammal tayyorgarlik ko'rmasin, uning taktikasi va qo'llayotgan metodikasi kursantlarni yangi pog'onaga olib chiqishiga xizmat qilmaydi, zero an'anaviy ta'lim texnologiyalar asosida avtoritar pedagogika asoslari va talablari joriy qilingan bo'lib, individual va ijodiy qobiliyatlarni namoyon qilishga sharoit yaratilmagan. Kreativ-pedagogik adabiyotlar



tahlili ko‘rsatishicha, kursantlarda ijodiy qobiliyatlar maqsadli ta’limi o‘quv jarayonida ijodiy muhit yaratilishini ta’minlaydigan ta’lim maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. SH. M. Mirziyoyev. Xavfsizlik kengashi majlisidagi “Qurolli kuchlarimiz - mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” mavzusidagi nutqi. // - Xalq so‘zi gazetasi. 2018 yil, №3.

2. <http://uza.uz/oz/politics/Qurolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-barqarorligi-va-taraqqiyotini-11-01-2018>